

**O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISH**

Toshpo'latova Mohichehra Yuldosh qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
fakulteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: Tuyg'unoy Mamadjanova

Hozirgi kunda eksport salohiyatini oshirishda eksport tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, O'zbekistonda eksportbop tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni moliyalashtirish, xususan, eksport oldi kreditlari berish hamda eksport faoliyatini sug'urtalash maqsadida moliya va kapital bozorlarini yanada rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, eksport qiluvchi firmalar eksport faoliyatlarini moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari, shuningdek eksport qilish jarayonlarida sug'urtalash xizmatlariga murojaat qilish imkoniyatlarining paydo bo'lishi ularning eksport bozoriga kirish bo'yicha qarorlariga hamda eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Aytib o'tishimiz kerakki, eksportni oldindan moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirish imkoniyatlarining mavjud emasligi sababli eksportyorlar ishlab chiqarish uchun eng yuqori mavsumda yoki kutilmaganda buyurtma kelib tushganda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun etarli pul oqimi yo'qligidan xavotirlanadi.

Bundan tashqari, tashqi moliyalashtirish xarajatlarining yuqori bo'lishi raqobatdosh firmalarning eksportiga to'sqinlik qiladi.

A.A.O'lmasov, A.B.Vahobovlar o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli o'quv darsligida quyidagi fikrlarini aytib o'tishadi: "Odatda eksport qiluvchilarning eksport faoliyatlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklarga uchrashi

moliya va kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, ushbu bozorlarda raqobatning nomukammalligi va ma'lumotlarning teng taqsimlanmaganligi bois bozor muvaffaqiyatsizligi bilan izohlanadi. Bunday bozor muvaffaqiyatsizliklari davlat tomonidan moliya va kapital bozoriga oqilonalik bilan aralashuvga asos bo'ladi".

Shuning uchun eksportga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo'lidan borgan mamlakatlar eksport qiluvchi korxona va tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida eksport kredit va sug'urta agentliklarini tashkil etishgan. Ushbu mamlakatlarda davlat aralashuvi ishlab chiqarish omillari narxlarini o'zgartirib, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirgan hamda iqtisodiyotning optimal ishlab chiqarish darajasigacha ko'tarilishiga xizmat qilgan.

Eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarining eksport faoliyatiga ta'sirini o'rganish, xususan eksport qiluvchilarning eksportni moliyalashtirish imkoniyatlari va ularning jahon bozoriga chiqishi o'rtasidagi aloqadorlikni baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan¹.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilar firmalarning eksportini rag'batlantiruvchi va uzoqda joylashgan firmalarning moliyaviy resurslarga kirishini osonlashtirishga qaratilgan siyosat olib borilishini qo'llab-quvvatladilar.

Kanadaning eksport kredit agentligi – Export Development Canada (EDC) 1944-yildan beri kanadalik eksportyorlar va investorlarga 200ga yaqin xalqaro bozorlarda bizneslarini kengaytirishga yordam berib kelmoqda. EDCning mahsulot va xizmatlari xaridor davlatdagi tijoriy va siyosiy xavflarni sug'urtalash, Kanada kompaniyalari va ularning mijozlari uchun moliyalashtirish xizmatlari, obligatsiya yechimlari hamda xalqaro bozorlardagi imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi².

Shuningdek, EDC Kanadaning dunyoning yirik iqtisodiyotlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Masalan, mazkur agentlik 2018

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019yil 04 oktyabrdagi 845-sonli "Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi mablag'laridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.

² Larionov I.K., Silvestrov S.N. Ekonomicheskaya teoriya. Ekonomicheskie sistemi: formirovanie i razvitie: Uchebnik dlya magistrrov / Moskva.: Dashkov i K, 2019. - 876 s.

yilda Xitoyga eksport qiladigan yoki investitsiya kiritadigan 1000 ta Kanada kompaniyasining 600 dan ortig'ini har tomonlama qo'llab-quvvatladi.

AQSh rasmiy eksport kredit agentligi AQSh Eksport-import banki (Ex-Im Bank) 1934 yilda tashkil etilgan. Ex-Im Bankning asosiy vazifasi AQShda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni xalqaro xaridorlarga sotishni moliyalashtirish orqali ish o'rinlarini yaratish va saqlab qolishdir.

AQSh eksportini qabul qiluvchi davlatlardagi siyosiy yoki tijoriy risklar sababli xususiy tijorat institutlari eksport qiluvchi tashkilotlarga kredit bera olmagan yoki kredit berishni istamagan sharoitda, Ex-Im Bank eksport operatsiyalarini moliyalashtirish yoki sug'urta qilish (kredit kafolatlari, sug'urta qoplamasi, to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish yoki aylanma mablag'larni kafolatlash ko'rinishida) choralari ko'radi. Bu alohida bir kompaniya uchun xalqaro bozorlarda savdo qilish xavfini kamaytiradi va bu bilan AQSh eksportini rivojlantirishga yordam beradi.

Xorijiy xaridor odatda Germaniyaning yuqori qo'shilgan qiymatli tovar va xizmatlarini sotib olish uchun qarz kapitaliga ehtiyoj sezganligi sababli KfW IPEX-Bank tomonidan berilgan kreditlar nemis eksportyorlari uchun o'z mahsulotlarini sotishni osonlashtiradi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlarning o'z eksportlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tajribasini ularning eksport kredit agentliklarining xaridor kreditlari O'zbekiston bozoriga ham kirib kelganligida ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlarida (Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya) eksport kredit agentliklari hisoblangan banklar o'z davlatlarida ishlab chiqarilgan tovar, asbob-uskuna va xizmatlarni O'zbekistonga eksportini moliyalashtirish uchun kreditlar taqdim etib kelmoqda.

O'zbekistonda ham 2020-yil va undan keyingi 7 yillikda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi xalqaro bozorlarga chiqish va eksport hajmini ko'paytirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz

eksport salohiyatini oshirish 2027-yilga borib Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini 120 mlrd. AQSh dollariga yetkazishga katta hissa qo'shadi.

Shuning uchun, yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar singari O'zbekistonda ham eksport hajmini oshirishda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda eksport qiluvchi kompaniyalarning eksport faoliyatlarini moliyalashtirishning yagona manbai bank kreditlari bo'lib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan savdo kreditlari bilan bir qatorda aylanma mablag'larini to'ldirish (xom-ashyo va materiallar, butlovchi qismlar va eksport faoliyati bilan bog'liq shu kabi xaridlarni moliyalashtirish) uchun qisqa va uzoq muddatli kreditlar va kredit liniyalari taklif etilmoqda.

Masalan, 2018-yildan boshlab "O'zsanoatqurilishbank" va Tojikistonning "Oriyon" banklari tomonidan O'zbekistondan Tojikistonga tovarlar va xizmatlar eksporti bilan bog'liq bitimlarni moliyalashtirish uchun kreditlar taqdim etib kelinmoqda.

Shunga qaramasdan, tijorat banklarida moliyaviy resurs bazasining yetishmasligi tashqi savdoni kreditlash imkoniyatlarini cheklamoqda. Shuning uchun, moliyaviy to'siqlarning mamlakatimiz eksport salohiyatiga ta'sirini yumshatish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlaridan moliyaviy mablag'lar jalb qilinmoqda.

Xulosa

Har bir davlatning eksport salohiyatini oshirishda eksport tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, O'zbekistonda eksportbop tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni moliyalashtirish, xususan eksport oldi kreditlari berish hamda eksport faoliyatini sug'urtalash maqsadida moliya va kapital bozorlarini yanada rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 04

oktyabrdagi 845-sonli “Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi mablag‘laridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.

2. O‘lmasov A., Vahobov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2018. - 480 bet.

3. Larionov I.K., Silvestrov S.N. Ekonomicheskaya teoriya. Ekonomicheskie sistemi: formirovanie i razvitie: Uchebnik dlya magistrov / Moskva.: Dashkov i K, 2019. - 876 s.